

MAHALLIY BUDJETLAR XARAJATLARINI REJALASHTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Ataniyazov Jasurbek Xamidovich

TMI, “Xalqaro moliya-kredit” kafedrasini mudiri

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

E-mail: jasurbek156@gmail.com

Ro‘zimatov Axmadjon Xayrullo o‘g‘li

BMA magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mahalliy budjetlarning xarajatlari, ularni joriy holati tahlili hamda xarajatlarni rejalashtirish muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, mamlakatimizda qo‘llanilish imkoniyatlari tahlil qilingan.

***Kalit so‘zlar:** davlat budjeti, mahalliy budjetlar, budjet xarajatlari, xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy resurslar.*

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF LOCAL BUDGET COST PLANNING

ANNOTATION

In this article, the costs of local budgets, their current state analysis, as well as the problems of cost planning and the experience of foreign countries on their elimination, are analyzed, and the possibilities of their application in our country are analyzed.

***Key words:** state budget, local budgets, budget expenditures, expenditure planning, financial resources.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish qaratilgan tub iqtisodiy islohotlar o‘tkazilishi budjet tizimi, jumladan, mahalliy budjetlar ahamiyatini yanada oshiradi. Bunda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi. Islohotlar chuqurlashishi bilan mahalliy budjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan choratadbirlar hajmi oshishi natijasida ular ixtiyorida qoluvchi daromadlarni kengayib borishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 11 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti pul mablag‘larini kassali rejalashtirish va boshqarishni amalga oshirish bo‘yicha hujjat shakllari va ularni taqdim qilish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi qabul qilingan bo‘lib, yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari (bundan buyon matnda G‘aznachilik bo‘linmalari deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi (bundan buyon matnda DSQ deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi (bundan buyon matnda DBQ deb yuritiladi), shuningdek soliq va yig‘imlarni undirish bo‘yicha boshqa vakolatli organlar (bundan buyon matnda boshqa vakolatli organlar deb yuritiladi), budjet tashkilotlari va budjet mablag‘lari oluvchilarga nisbatan tatbiq etiladi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzu doirasida xorijiy olimlardan P.Samuelson soliqlar va davlat xarajatlari bilan ish ko‘ruvchi fiskal siyosat, pul siyosati bilan qo‘shilganda yuqori darajadagi aholi bandligini yuzaga keltiruvchi barqaror iqtisodiyotni maqsad qilib qo‘yadi, lekin bu yerda narxlar qadrsizlanishi ma’lum darajada hisobga olmaydi, deb fiskal ahamiyatini baholashga uringan [3].

Xususan, S.Fisher, R.Dornbush va R.Shmalenzilar yaxlit olingan davlat xarajatlari va soliq sohasidagi muammolarni hal etishga qaratilgan deb fiskal siyosatga aniqlik kiritishga harakat qilishgan [4].

Rus olimi Y.F.Borisov fiskal siyosat davlat tomonidan byudjet daromadlari va xarajatlarini tartibga solishga qaratilgan davlatning yaxlit olingan moliyaviy chora- tadbirlar majmuasi deb ko‘rsatadi. Shuningdek, zamonaviy fiskal siyosat moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va moliyalashtirish manbalarini shakllantirish hamda uning asosiy vazifasi davlat xazinasini to‘ldirish hisoblanadi [5].

Mahalliy olimlardan iqtisodiyot fanlari doktori, professor T.S.Malikov fiskal siyosatni “byudjet-soliq siyosati” talqinida tadqiqot olib borib, uning mazmuniga “bir tomondan, byudjet daromadlarini (oqilona) shakllantirish, ikkinchi tomondan, byudjet xarajatlarini (samarali) sarflash bilan bog‘liq” deb ko‘rsatadi [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahalliy budjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag‘larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatning faoliyat ko‘rsatishlarida moliyaviy manba bo‘lib, davlatning ijtimoiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo‘l tutishi

davrida budjetning va mahalliy budjetlarning respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshdi. Aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida budjetdan ko'p miqdorda mablag' talab qilinadi, ushbu mablag'larni berish mahalliy budjetlar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday ekan, mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval.

Mahalliy budjet xarajatlari [1]

Xarajat turlari
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari
Iqtisodiyot xarajatlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmachi bo'lgan markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari
Mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini saqlab turish xarajatlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining zaxira jamg'armalarini shakllantirish xarajatlari
Davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun er uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yuridik va jismoniy shaxslarga etkazilgan zararining o'rnini qoplash xarajatlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining va Toshkent shahri shahar budjetining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar va tadbirlarning xarajatlari

Budjet kodeksiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi.

Hududlarning budjetini rejalashtirishda:

- tovar ishlab chiqarish va bozor xizmatlari hajmi (doimiy va joriy narxda);
- iqtisodiyot va ijtimoiy sohada bandlik soni;
- asosiy fondlarning kiritim va chiqim (doimiy va joriy narxda);
- qo'shimcha qiymatni o'z ichiga olgan holda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi;
- narx ko'rsatkichlari;
- tovar ishlab chiqarish va bozor xizmatlari uchun xarajat tuzilmasi;

tovar ishlab chiqarish va bozor xizmatlarining umumlashgan ko‘rinishdagi (amortizatsiya, mehnat haqi, balans daromadi) moliyaviy ko‘rsatkichlari; umumiy va soliq turlari bo‘yicha umumdavlat va mahalliy budjetlar daromadlari; budjetdan tashqari fondlar daromadlarini qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiiq etilishi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga, budjet siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini tartibga solishga, budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga va davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda.

2-jadval.

2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining (maqsadli jamg‘armalarsiz) xarajatlari [3]

Ko‘rsatkichlar		2019 yil	2020 yil	2021 yil
Xarajatlar jami		118 008,7	144 142,7	188 633,9
1.	Ijtimoiy xarajatlar	63 542,4	74 231,8	92 613,5
2.	Iqtisodiyot xarajatlari	18 485,2	16 692,8	21 669,2
3.	Investitsiya xarajatlarini moliyalashtirish	7 048,5	18 843,7	29 345,2
4.	Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari	5 315,0	7 826,4	8 481,7
5.	O‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	701,1	817,7	1 037,1
6.	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari	985,4	1 506,2	1 401,8
7.	Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo‘llab-qo‘vvatlash xarajatlari	37,8	47,5	95,6
8.	Davlat qarzlariga xizmat ko‘rsatish va qoplash xarajatlari	1 089,2	1 816,4	2 238,2
9.	Boshqa xarajatlar	20 804,1	22 360,3	30 901,8

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlariga asosan, 2021 yil uchun Davlat budjeti xarajatlari 188,6 trln. so‘m miqdorida, shundan, respublika budjeti xarajatlari

122,9 trln.so‘m hamda mahalliy budjetlar xarajatlari 65,6 trln.so‘m miqdorida tasdiqlangan edi. Koronavirus pandemiyasining tarqalishi, karantin choralarining qo‘llanilishi 2020-2021 yillarda yuz bergan tabiiy ofat va texnogen avariya Davlat budjeti xarajatlariga jiddiy o‘zgartirishlar kiritishni talab etdi. Davlat budjetining 2021 yildagi xarajatlari 188 633,9 mlrd. so‘mni yoki YaIMga nisbatan deyarli 26,0 foizni tashkil etdi.

3-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarida mahalliy budjetlarning tutgan o‘rni [3]

Xarajatlar	Yillar		
	2019	2020	2021
Davlat budjeti (mlrd.so‘m)	118008,7	144142,7	188257,1
shu jumladan:			
Respublika budjeti (mlrd.so‘m)	65959,0	96952,0	122722,2
Davlat budjetiga nisbatan salmog‘i (foizda)	55,9	67,3	65,2
Mahalliy budjetlar (mlrd.so‘m)	52049,7	47190,7	65534,9
Davlat budjetiga nisbatan salmog‘i (foizda)	44,1	32,7	34,8

Yuqoridagi ma’lumotlardan davlat budjeti xarajatlarining respublika va mahalliy budjetlar o‘rtasidagi nisbati yildan-yilga ortib borayotganini kuzatishimiz mumkin. 2019 yilda mahalliy budjetlar xarajatlarining davlat budjetidagi ulushi 44,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib qariyb 12 foizga pasayish kuzatilgan. Respublika budjetida esa buni aksi 55,9 foizdan 67,3 foizga yetgan. Davlat budjeti tarkibida respublika budjeti xarajatlarining ortishining asosiy sababi koronavirus pandemiyasi davrida sog‘liqni saqlash xarajatlarining ortishiga borib taqaladi. 2021 yilda esa mahalliy budjetlar hajmi 18 trln 344,2 mln so‘mga ortgan.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy muvozanat va barqaror iqtisodiy o‘shishni saqlab qolish, davlat budjeti balansliligi va barqarorligini ta’minlash, davlat qarzining asossiz oshishiga yo‘l qo‘ymaslik, aholi daromadlari va turmush darajasini yanada yuksaltirishni ta’minlash, chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritish, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, hududlar daromad bazasini oshirish hamda mahalliy budjet xarajatlarini optimallashtirish hisobiga subventsiya oluvchi hududlar sonini qisqartirishdek muhim yo‘nalishlarga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA

Tadqiqotlar asosida, mahalliy darajada budjet jarayonini takomillashtirishning asosiy vositalari sifatida quyidagilarni qayd etish maqsadga muvofiqdir:

1) barcha darajadagi budjetlar uchun o‘rta muddatli va natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarini qonuniy asosda mustahkamlab quyish;

2) moliyaviy resurslarning hokimiyatning yuqori pogonasida maksimal kontsentratsiyalashuvi faqatgina davlat budjeti kurulishining zaruriy boskichi ekanligini tan olish. Moliyaviy sohada barqarorlik hamda samarali jamlanish va mablag‘larni taksimlovchi hujjat sifatidagi budjetga yondashuvlarning o‘zgarishi yakunda budjet tizimining markazlashganlik darajasining yanada pasayishiga va budjetlar mustaqilligining ortishiga olib kelishi lozim;

3) barcha darajadagi budjetlarni nazorat qilishning amaliy tizimini ta‘minlash. Bu nazorat-taftish organlarining adekvat tizimini yaratishni nazarda tutadi;

4) aynan mahalliy budjetlardan boshlab budjet shaffofligini ta‘minlash. Bu ish nafaqat budjet tugrisidagi (shaffoflikni hozirgi kun nuqtai nazaridan tushunish) qonunlarni chikarish, balki fukarolarning batafsil ma‘lumotlar (o‘quv dasturlari, hokimiyat organlari moliyasini o‘rganishga maktablardan boshlab maqsadli grantlar ajratish, hududning moliya tizimini eng yaxshi bilimdonligiga tanlovlar e‘lon qilish)ga ega bo‘lishga qiziqishlarini rag‘batlantirish, budjet ijrosi holati va sifati tugrisida ommaviy ma‘ruzalar va diskussiyalar o‘tkazish.

XULOSA

Ushbu maqolada yoritilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, mahalliy budjetlar miqyosida natijaga yunaltirilgan o‘rta muddatli budjetlashtirish mexanizmini amaliyotga tatbiq etish bizga joriy budjetlashtirish tizimida mavjud bo‘lib kelayotgan yuqorida ko‘rib chiqilgan kuplab muammolarni hal etish imkonini yaratadi. Umuman olganda, davlat budjetini o‘rta muddatli rejalashtirishni joriy etish bizga bir qator afzalliklar olib keladi va buni natijaga yunaltirilgan budjetlashtirishni tashqil etish hamda davlat budjetini o‘rta muddatli rejalashtirishni hududlarda tashqil etish amaliyotini o‘rganish orqali tadqiq etdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. 2013 yil 26 dekabr*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2018 yil 11 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti pul mablag‘larini kassali rejalashtirish va boshqarishni amalga oshirish bo‘yicha hujjat shakllari va ularni taqdim qilish tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomasi*
3. *<https://openbudget.uz/> - O‘zbekiston Respublikasining "Ochiq budjet" portal ma‘lumotlari*
4. *Финшер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. Пер. с англ. – М.: Дело ЛТД, 1993. С.512.*

5. Самуелсон П. Экономика Т.1. пер. с англ. - М. Республика, 1993
6. Борисов Йе.Ф. Экономическая теория. – М.: Юрист. 1997. С. 505.
7. Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati / T.S.Malikov, P.T.Jalilov; T.S.Malikovning umumiy tahriri ostida, O‘z.R. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, TMI.- T.Akadempnashr, 2011.-6-bet.